

INGILIZ TILIDA LUG'AT YODLASHNING SAMARALI USULLARI

Ch. Asadova ¹, S. Ulug'bekova ², K. Shamsiyeva ³

Annotatsiya:

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz tilining ajralmas va zaruriy qismi bo'lgan lug'at boyligini oshirishga qaratilgan oson texnikalarni yoritib berish.

Kalit so'zlar: mnemonika, kalit so'zlar usuli, o'zbek tiliga moslashtirish usuli, birlashtiruvchi tarmoqlar yaratish

doi: <https://doi.org/10.2024/t9qjcj35>

Har bir tilni o'rganayotganimizda bizni qiynaydigan va shijoatimizni tushib ketishiga sabab bo'ladigan narsa bu lug'at boyligimizni oshira olmaslikdir. Aytaylik, o'quvchi ingliz tilida kitob o'qimoqda. Uning butun nigohi kitobga qaratilgan, biroq hayoli parishon. Nega? Chunki kitobdagi juda ko'p so'zlar unga notanish bo'ladi. Lug'atni qo'lga olib, har bir yangi so'zning tarjimasini topguncha toliqib, zerikib ham ketadi. Yangi so'zlarni bee'tibor qoldirsa, kerakli ma'lumot ham e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Oqibatda na yangi so'zlarni samarali o'rganadi, na o'qiyotgan kitobini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng katta muammo bu so'z yodlashdir. Negaki, bu jarayonda siz o'nlab yoki yuzlab emas, balki minglab yangi so'zlarni o'rganishingiz talab etiladi. Sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajakda boshqa sohalaridagi muvaffaqiyatlaringizga yo'l ochuvchi kalit hamdir. Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, kundalik muloqot uchun 1200-2000 ta so'zni bilish talab qilinadi. Demak, ingliz tilida erkin muloqot qilish uchun shuncha so'zni bilish kifoya qiladi. Tajribali pedagoglar fikriga qaraganda, O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish jarayonida ingliz tili fanidan test savollarini muvaffaqiyatli yechish uchun 4500-5000 ta so'z bilish talab qilinadi. Xorij oliygohlariga kirish uchun topshiriladigan IELTS imtihonida yuqori bal olishni xohlagan o'quvchi kamida 7000 ta so'zni mukammal bilishi kerak. Ingliz tilida faoliyat ko'rsatuvchi olimlar, yozuvchilar va shoirlar 12000-15000 ta so'zdan foydalana olishlari aniqlangan.

Mnemonika

Mnemonika – o'xshashlik, bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida allaqachon mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi axborotni eslab qolish osonlashadi.

Keling, bu uslubga oid bir misolni ko'rib chiqamiz: yilning qaysi oylari 31 kun va qaysilari 30 kun ekanligi har doim ham insonning yodida turavermaydi.

¹ Asadova Chexrangiz Salim qizi, SamDCHTI o'qituvchisi

² Ulug'bekova Sevaraxon Oybekovna, SamDCHTI talabasi

³ Shamsiyeva Kamola, SamDCHTI talabasi

Buni siz quyidagi inglizcha she'r yordamida osonlik bilan o'rganib olishimiz mumkin.

Thirty days have September,
April, June and November,
All the rest have thirty-one;
February has twenty-eight alone,

Qolaversa, mnemonika ba'zi ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirish uchun o'zingizni topqirligingizdan foydalanishga ham imkon beradi.

Masalan, ingliz tilida soat, aniq vaqt aytilganda, birinchi 30 daqiqada "past" (o'tdi) so'zi ishlatiladi: 05:20 twenty past five – beshdan yigirma daqiqa o'tdi. Endi, agar mexanik qo'l soatiga qarasangiz, har soatning birinchi yarmida strelkalarni pastga qarab harakatlanayotganini ko'rasiz. Demak, ingliz tilida past so'zi ishlatilganda, soat strelakalari pastga qarab harakatlanadi.

Soatning ikkinchi yarmida esa ingliz tilida "to" (ta kam) predlogi ishlatiladi: 08:43 – seventeen to nine – o'n yettita kam to'qqiz. Bu holatda 30-daqiqaga qadar pastga tushgan strelkaning endi to 60-daqiqagacha tepaga ko'tarilishini tasavvur qilamiz. Vaqtni aytishni bunday usulda o'rgangan odam uni hech unutmasa kerak.

Mazkur usulning asosiy g'oyasi murakkab bo'lgan ma'lumotning miyamizga osongina yodlanish yo'lini topishga qaratilgan. Miyamiz rasm, rang, shakl, ovozlarni eslab qolishga moslashgan.

Kalit so'z usuli yoki fonetikaga e'tibor

Bu o'rinda asosiy texnika "kalit so'z" texnikasi bo'lib, buni talaffuz uslubi deb ham atashadi. Aytaylik, qaysidir so'zni o'yladigiz, misol uchun, "a dish" (ingliz tilida "idish" degani). Endi uning qanday talaffuz qilinishiga e'tibor berasiz va o'zingizga ma'lum bo'lgan ohangdosh tushuncha bilan bog'laysiz. So'ng esa shular asosida g'ayrioddiy tasavvur topib, tanish makonga joylashtirasiz va paydo bo'lgan yangi tushunchaga doir gap tuzasiz.

Bizarre /biza:/ - g'alati. Bu so'zni o'zbek tilidagi bozor so'ziga bog'laymiz. Shunday tasavvur qilamizki, chet ellik mehmon uchun bizning bozor g'alatidek tuyuldi-da, u "bizarre bu – bozor" deb, bozordan narsalar xarid qilaverdi.

Push /push/ - itarmoq. Bu so'z uchun o'zbekcha "Po'sh-po'sh!"ni tanlaymiz. Yana bozorni eslaymizda u yerda aravakash "po'sh-po'sh" deb aravani itarib ketayotganini tasavvur qilamiz.

Eminent /eminent/ - mashhur. Bu so'zga esa o'zingiz bilgan qofiyadoshni topish muammo bo'lmasa kerak – qo'shiqchi Eminem. Tasavvur qilamizki, mashhur rep qo'shiqchisi Eminem kuylayotganda, qo'qqisdan chiroq o'chib qolib, fonogrammada kuylayotgani ma'lum bo'lib qoladi. Bir gap bilan aytganda, Eminent Eminem couldn't sing very well.

O'zbek tiliga moslashtirish usuli

Ingliz tilida so'z yodlayotgan o'quvchi yana bir qiziq holatga duch kelishi mumkin. U ham bo'lsa, ba'zi inglizcha so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan nafaqat ohangdosh, balki ma'nodosh ekanligi hamdir. Albatta, bunga o'xshash so'zlar sanoqli, lekin harakat va izlanishlar orqali bunday so'zlarni ko'plab topishingiz va so'z boyligingizni yanada ko'paytirishingiz mumkin.

Quyida shunday so'zlardan misollar keltiramiz:

To chop – chopmoq
Daddy – dada
The wall – devor
A voice – ovoz

Asphalt –asfalt
 Galosh –kalish
 Pistachio – pista
 Candy – qand
 Candle – qandil
 A dish – idish

Lugʻat daftari tutish sanʻati

Lugʻat daftari – har qaysi tilni oʻrganayotgan inson tutishi lozim boʻlgan yordamchi vositadir. Koʻpchilikning lugʻat daftari zerikarli, beeʻtibor, pala-partish boʻladi. Oʻquvchilar bunday tartibsizlik yangi soʻzlarni eslab qolishga salbiy taʼsir koʻrsatishi haqida oʻylab ham koʻrmaydi.

Lugʻat daftaringizda turli xil rangdagi ruchkalardan foydalaning. Lugʻat tutishdagi eng katta xato bir xil rangli ruchka ishlatishdir. Tasavvur qiling, lugʻatdagi hamma soʻzlar koʻk rangda yozilgan, ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi, manzara naqadar zerikarli! Aynan shundan keyin bola oʻqishdan zerikadi-da. Oʻquvchining ijodkorlik xususiyati pasayib ketadi. Natijada esa miyamiz zerikkan narsaga eʼtibor qaratishni xohlamaydi.

Birlashtiruvchi tarmoqlar yarating

Bizning miyamiz biz oʻqigan narsalarni idrok etadi va uni tasvirlar, gʻoyalar va his-tuygʻularga aylantiradi, soʻngra yangi maʼlumotlar va biz allaqachon bilgan narsalar oʻrtasidagi aloqani hosil qiladi. Xotiralash jarayoni shunday boʻladi – yangi eski bilan birlashadi.



Yangi soʻz yoki tushunchani siz allaqachon bilganingiz bilan birlashtirsangiz, miya oʻz vaqtida topish va eslab qolish osonroq boʻladi.

Xulosa qilib aytganda lugʻat boyligining keng ekanligi soʻzlashda ifodali nutq shakllanishiga va manoning qisqa, loʻnda shakilda tinglovchiga yetib borishiga yordam beradi. Oddiy soʻzlarning ham ingliz tilida murakkabroq fornalari va bazi soʻzlar uchun esa soʻz birikmalari yaʼni iboralar bor. Lugʻat boyligining keng boʻlishi IELTS imtihonlarida ham qoʻl keladi. Shunday ekan zerikarli va effektsiz boʻlgan soʻzlarni qayta va qayta oʻqish orqali yodlagandan koʻra samarali usllarni ishlab chiqish maqul.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- [1]. <https://prep.uz/news/umumiy/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>
- [2]. <https://fledu.uz/uz/ingliz-tilidagi-sozlarni-yodlashning-7-samarali-usuli/>
- [3]. <https://uz.healthy-food-near-me.com/programs-and-techniques-for-quickly-memorizing-english-words/>
- [4]. Rashidova , Z. ., & Asadova , C. . (2024). Interactive methods in developing young learners' speaking skills. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 3(1), 117–121. <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/11561>
- [5]. A quick and easy method of teaching English for primary school
- [6]. CS Asadova, NV qizi Timirxanova - international conference on learning and ..., 2022

International Conference

**HUMANISTIC ROLE OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEMPORARY
GLOBALIZATION**

[7]. Asadova Chekhrangiz. (2023). *Preservation of Originality in the Translation of Emotional Sentences in the Speech of the Hero of the Work of Art* . *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 93-98. Retrieved from

<https://cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/1054>

[8]. Teaching children how to set adequate goals and strategies

[9]. AC Salimovna - Finland" modern scientific research ..., 2023